SHAYX MUHAMMAD SODIQ MUHAMMAD YUSUFNING “IJTIMOIY ODOBLAR” ASARINING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Azizova Feruza Orifjon qizi
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
azizovaferuza774@gmail.com.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Ijtimoiy odoblar” asarida ilgari surilgan ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlarning pedagogik mazmuni tahlil qilinadi. Asarning shaxs ma’naviyatini shakllantirish, muomala madaniyatini rivojlantirish, ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirish hamda yosh avlodda odob-axloq me’yorlarini qaror toptirishdagi imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqot davomida asarning mazmun-mohiyati pedagogikaning tarbiya, axloqiy kamolot, ijtimoiylashuv, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va amaliy faoliyat bilan bog‘liq tamoyillari nuqtayi nazaridan tahlil etildi. Shuningdek, asardagi odob tushunchasining nazariy asoslari bilan uning kundalik hayotdagi amaliy ko‘rinishlari o‘rtasidagi uzviylik ochib beriladi. “Ijtimoiy odoblar”ning ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari hamda uning yoshlarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Аннотация: В данной статье анализируется педагогическое содержание духовно-нравственных и социально-воспитательных взглядов, изложенных в труде шейха Мухаммада Содика Мухаммада Юсуфа «Социальные манеры». Подчеркиваются возможности работы в формировании личностной духовности, развитии культуры общения, укреплении социальной ответственности и установлении моральных норм у молодого поколения. В ходе исследования анализировались содержание и сущность работы с точки зрения педагогических принципов, связанных с воспитанием, нравственным развитием, социализацией, личностно-ориентированным подходом и практической деятельностью. Также раскрывается связь между теоретическими основами концепции этикета в работе и ее практическим проявлением в

повседневной жизни. Обосновываются возможности использования «Социальных манер» в образовательном процессе и их важность в развитии социальных компетенций молодежи.

Abstract: This article analyzes the pedagogical content of the spiritual-moral and socio-educational views put forward in the work of Sheikh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Social Manners". The possibilities of the work in forming personal spirituality, developing a culture of communication, strengthening social responsibility, and establishing moral standards in the younger generation are highlighted. During the study, the content and essence of the work was analyzed from the point of view of the principles of pedagogy related to upbringing, moral development, socialization, a person-oriented approach, and practical activities. Also, the connection between the theoretical foundations of the concept of etiquette in the work and its practical manifestations in everyday life is revealed. The possibilities of using "Social Manners" in the educational process and its importance in developing the social competencies of young people are substantiated.

Kalit so‘zlar: Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, “Ijtimoiy odoblar”, pedagogika, tarbiya, axloq, ma’naviyat, odob, ijtimoiylashuv, muomala madaniyati, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy kompetensiya.

Ключевые слова: шейх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф, «Социальные манеры», педагогика, воспитание, нравственность, духовность, манеры, социализация, культура поведения, образование молодежи, социальная компетентность.

Keywords: Sheikh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, "Social Manners", pedagogy, upbringing, morality, spirituality, manners, socialization, culture of behavior, youth education, social competence.

Kirish

Bugungi kunda yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalash masalasi ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida bilim berish bilan bir qatorda o‘quvchi va talabalarda

muomala madaniyati, ijtimoiy mas’uliyat, o‘zini boshqara olish, boshqalarning huquq va manfaatlarini hurmat qilish, jamiyatda o‘zini munosib tutish kabi sifatlarni shakllantirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan ma’naviy-axloqiy tarbiya bilan bog‘liq ilmiy va ma’rifiy merosni pedagogik nuqtayi nazardan o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning ilmiy-ma’rifiy merosi mazmun jihatidan keng qamrovli bo‘lib, unda tafsir, hadis, fiqh, aqida, odob-axloq, ruhiy tarbiya va ijtimoiy munosabatlarga oid masalalar yoritilgan. Tadqiqotchilar ham alloma merosining diniy bilimlar bilan chegaralanib qolmasdan, insoniy fazilatlar va tarbiyaviy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qilishini ta’kidlaydilar.

Bu meros tarkibida “Ijtimoiy odoblar” alohida o‘rin tutadi. Asarning zamonaviy nashrlarida odobning ta’rifi, ahamiyati va manbalaridan boshlab, kalom odobi, salomlashish, ovqatlanish, mehmondorchilik, to‘y va marosimlar, yig‘in va majlislar hamda bayramlarga oid odoblar kabi masalalar tizimli ravishda berilgan.

Asarning pedagogik qiymati shundaki, unda odob mavhum nazariy tushuncha sifatida emas, balki insonning kundalik hayoti, o‘zaro munosabatlari va jamiyatdagi xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladigan amaliy sifat sifatida talqin qilinadi. Shu sababli “Ijtimoiy odoblar”ni pedagogik jihatdan o‘rganish shaxs tarbiyasining mazmuni va metodlarini boyitishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Ijtimoiy odoblar” asari ushbu tadqiqotning asosiy manbasi hisoblanadi. Asarning nashriyot tomonidan e’lon qilingan mundarijasida odobning ta’rifi va ahamiyati, uning manbai, islomiy odoblarning xususiyatlari, so‘zlashuv, salomlashish hamda maskan odobi kabi mavzular o‘rin olgan. Mazkur mavzularni pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilish odobni shaxsning kundalik xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlari bilan bog‘liq holda o‘rganish imkonini beradi. Xususan, so‘zlashuv va salomlashish odobiga doir qarashlar muloqot madaniyatini shakllantirish, o‘zaro hurmatni rivojlantirish va jamoada munosib xulq-atvorni qaror toptirish bilan aloqadorligi jihatidan

ahamiyatlidir. Shayxning odob-axloq masalalariga oid ilmiy-ma'rifiy merosini o'rganishda "Odoblar xazinasi" asari ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Mazkur ko'p jildli asar Imom Buxoriyning "Al-adab al-mufrad" asariga berilgan sharhlar asosida shakllangan. Ushbu manba odob-axloq masalalarini hadislar mazmuni va ularning sharhi orqali o'rganish imkonini beradi. "Ijtimoiy odoblar" va "Odoblar xazinasi" asarlarini qiyosiy o'rganish muallifning axloqiy tarbiya haqidagi qarashlarini kengroq tushunishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Pedagogikada axloqiy tarbiya shaxsda ezgulik, halollik, mas'uliyat, hurmat, mehr-oqibat, sabr, kamtarlik va o'zini boshqara olish kabi fazilatlarni shakllantirishni nazarda tutadi. "Ijtimoiy odoblar" asarida ushbu fazilatlar bevosita yoki bilvosita kundalik ijtimoiy munosabatlar orqali ifodalanadi.

Asarning pedagogik jihatdan e'tiborga molik tomoni shundaki, odob insonning faqat shaxsiy fazilati emas, balki uning jamiyatdagi faoliyatini tartibga soluvchi ma'naviy mexanizm sifatida talqin qilinadi. Bunda odob kishining o'z xatti-harakatini nazorat qilishi, boshqa insonlarning manfaatlarini hisobga olishi va ijtimoiy muhitga hurmat bilan munosabatda bo'lishini taqozo etadi. Mazkur yondashuvni zamonaviy pedagogikadagi ijtimoiy kompetensiya tushunchasi bilan ham bog'lash mumkin. Ijtimoiy kompetensiyaga ega shaxs jamiyatda muloqot o'rnata oladi, turli vaziyatlarda o'zini boshqara oladi, muammolarni konstruktiv yo'l bilan hal etishga intiladi va boshqa insonlarning nuqtayi nazarini inobatga oladi. "Ijtimoiy odoblar"da keltirilgan muomala va xulq-atvor me'yorlari ana shunday sifatlarning shakllanishi uchun ma'naviy asos vazifasini bajarishi mumkin. Bunda odobning yana bir muhim pedagogik vazifasi — o'z-o'zini tarbiyalashga yo'l ochishidir. "Ijtimoiy odoblar"ning pedagogik imkoniyatlarini belgilovchi asosiy yo'nalishlardan yana biri — muomala madaniyatini shakllantirishdir. Insonning jamiyatdagi muvaffaqiyatli faoliyati ko'p jihatdan uning boshqalar bilan qanday muloqot qilishi va munosabat o'rnata olishiga bog'liq.

Asarda kalom, salomlashish va turli ijtimoiy vaziyatlarda muomala qilishga oid masalalarning alohida ko‘rib chiqilishi bejiz emas. Pedagogik nuqtayi nazardan bunday mazmun o‘quvchilarda tinglash, suhbatdoshni hurmat qilish, o‘z fikrini me’yorida ifodalash, qo‘pol yoki kamsituvchi munosabatlardan tiyilish kabi kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishda foydalaniladi. Ayniqsa, bugungi raqamli kommunikatsiya sharoitida muomala madaniyatining ahamiyati yanada ortmoqda. Virtual muloqotda ham insonning boshqa shaxsning sha’nini hurmat qilishi va mas’uliyatli munosabatda bo‘lishi talab etiladi. Shu jihatdan asarda ilgari surilgan odob tamoyillarini zamonaviy kommunikatsiya vositalariga moslashtirish orqali tarbiya mazmunini yanada boyitadi.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf pedagogik qarashlarida ustoz shaxsiga alohida e‘tibor qaratadi. Ustoz nafaqat bilim manbayi, balki o‘zining odobi, muomalasi va hayot tarzi bilan tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatuvchi shaxs sifatida talqin etiladi. Shu jihatdan uning qarashlari zamonaviy pedagogikada ilgari surilayotgan —ta’lim beruvchi shaxsining namunaviyligi tamoyili bilan uyg‘unlashadi. Olimning pedagogik merosida ilm olish madaniyati ham muhim o‘rin egallaydi. Ilm olish jarayonida izchillik, mehnatsevarlik, vaqtni qadrlash, ustozga hurmat, kitob mutolaasiga muhabbat va o‘z ustida muntazam ishlash kabi fazilatlar yoshlarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishining muhim omillari sifatida e‘tirof etiladi. Mazkur qarashlar bugungi kunda oliy ta‘lim tizimida talabalarning mustaqil ta‘lim kompetensiyasini rivojlantirishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin1.

Ta’lim jarayonida ushbu g‘oyalarni amalga oshirish uchun muammoli vaziyatlar, rolli o‘yinlar, munozaralar, hayotiy misollar tahlili va refleksiv topshiriqlardan foydalanish samarali natija berishi mumkin. Masalan,

1 Azizova F. SHAYX MUHAMMAD SODIQ MUHAMMAD YUSUFNING PEDAGOGIK QARASHLARIDAN TA‘LIM-TARBIYA JARAYONIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI. —PEDAGOGIK MAHORAT‖ ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2026, № 8. B-248.

“Suhbatdoshning fikriga qo‘shilmagan vaziyatda qanday muomala qilish kerak?”, “Jamoat joyida shaxsiy erkinlik va boshqalarning manfaatlari o‘rtasida qanday muvozanat bo‘lishi lozim?” kabi savollar o‘quvchini odobning mazmuni haqida mustaqil fikrlashga undaydi.

Bu fikr zamonaviy pedagogikadagi “namuna asosida tarbiyalash” tamoyiliga mos keladi. Agar tarbiyachi o‘zi hurmat, sabr, xushmuomalalik va mas’uliyatni amalda namoyon etsa, tarbiyalanuvchi mazkur sifatlarni tabiiy ravishda o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Muhokama va natijalar. “Ijtimoiy odoblar” asaridan pedagogik jarayonda foydalanish bir necha yo‘nalishda amalga oshiriladi.

Birinchi yo‘nalish — ma’naviy-axloqiy tarbiya. Asardagi odob, hurmat, xushmuomalalik va mas’uliyatga oid g‘oyalar tarbiyaviy soatlarda, ma’naviyat mashg‘ulotlarida hamda sinfdan tashqari tadbirlarda muhokama qilinishi mumkin.

Ikkinchi yo‘nalish — muloqot kompetensiyasini rivojlantirish. Turli ijtimoiy vaziyatlarni modellashtirish orqali o‘quvchilarning muomala qilish, tinglash va o‘z fikrini erkin tarzda ifodalash ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Uchinchi yo‘nalish — refleksiv tarbiya. O‘quvchiga “Men boshqa insonlar bilan qanday muomala qilaman?”, “Mening xatti-harakatim atrofdagilarga qanday ta’sir qiladi?”, “Qaysi odatlarimni takomillashtirishim kerak?” kabi savollar berilishi orqali o‘z xulqini tahlil qilish qobiliyati rivojlantiriladi.

To‘rtinchi yo‘nalish — oila va ta’lim muassasasi hamkorligi. Asardagi odob me’yorlari asosida ota-onalar bilan suhbatlar, davra suhbatlari va tarbiyaviy tadbirlar tashkil etish mumkin. Bunda tarbiya yagona pedagogik talablar asosida olib boriladi.

Beshinchi yo‘nalish — ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish. Odobni faqat “o‘zini yaxshi tutish” doirasida emas, balki jamiyat oldidagi mas’uliyat sifatida tushuntirish yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga yordam beradi.

Bugungi ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy va faoliyatga asoslangan yondashuvlar keng qo‘llanmoqda. “Ijtimoiy odoblar” mazmunini ushbu yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish mumkin. Buning uchun

asardagi axloqiy me’yorlarni shunchaki yod oldirish emas, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llashga o‘rgatish zarur. Masalan, o‘quvchilarga ma’lum bir ijtimoiy vaziyat taqdim etilib, undan maqbul xulq variantini aniqlash so‘raladi. Bunday metod o‘quvchining mustaqil qaror qabul qilish, axloqiy vaziyatni baholash va o‘z harakatining oqibatlarini oldindan ko‘ra bilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf ustoz-shogird munosabatlarini ta’lim samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida baholaydi. Uning fikricha, ustozning kasbiy salohiyati bilan bir qatorda yuksak axloqiy fazilatlari ham o‘quvchi va talabaning shaxsiy kamolotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur qarashlar bugungi oliy ta’lim tizimida professor-o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini, kommunikativ kompetensiyasini va kasbiy etikasini rivojlantirishda muhim nazariy asos bo‘la oladi2.

Shu bilan birga, asarni zamonaviy pedagogik jarayonga tatbiq etishda uning diniy-ma’rifiy xususiyatlarini hisobga olish zarur. Pedagogik tahlil jarayonida asardagi universal axloqiy g‘oyalar — hurmat, halollik, mehr-oqibat, mas’uliyat, sabr, xushmuomalalik, inson sha’nini qadrlash kabi tushunchalarning tarbiyaviy mohiyatiga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Xulosa

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Ijtimoiy odoblar” asari insonning jamiyatdagi xulq-atvori, muomala madaniyati va ma’naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan muhim ma’rifiy manbalardan biridir. Asarning pedagogik qiymati, avvalo, odob tushunchasini nazariy qoida sifatida emas, balki insonning kundalik faoliyati va ijtimoiy munosabatlarida namoyon bo‘ladigan amaliy fazilat sifatida yoritishida ko‘rinadi.

2 Azizova F. SHAYX MUHAMMAD SODIQ MUHAMMAD YUSUFNING PEDAGOGIK QARASHLARIDAN TA‘LIM-TARBIYA JARAYONIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI. —MAKON VA ZAMON ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-sotsiologik, ma’naviy-ma’rifiy jurnal 2026, № 5. B-125.

Tahlil natijasida asarning bir nechta muhim pedagogik xususiyatlarini ajratish mumkin: nazariya va amaliyotning uzviyligi, axloqiy tarbiyaning kundalik hayot bilan bog‘liqligi, shaxsning ijtimoiylashuviga yo‘naltirilganligi, muomala madaniyatini rivojlantirish, o‘z-o‘zini tarbiyalashga undash hamda oila va jamoaning tarbiyaviy imkoniyatlarini kuchaytirish.

Asarning zamonaviy pedagogikadagi ahamiyati shundaki, undagi ko‘plab odob me’yorlari yoshlarning kommunikativ, ijtimoiy va axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan uyg‘unlashtirilishi mumkin. Bunda asosiy maqsad tayyor qoidalarni mexanik ravishda yod oldirish emas, balki o‘quvchi va talabalarda odobning mazmun-mohiyatini anglash, uni turli hayotiy vaziyatlarda qo‘llash va o‘z xatti-harakatini mustaqil baholash qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Demak, “Ijtimoiy odoblar” asari nafaqat diniy-ma’rifiy, balki muayyan pedagogik salohiyatga ega bo‘lgan manba sifatida ham ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odoblar. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2025.

2.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ruhiy tarbiya. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2023.

3.Palvannazirova Y.H. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf asarlarida nikoh va oila masalalarining yoritilishi // Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar jurnali. – 2026. – №1. – B. 476–481.

4.Ismoilova Sh. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining “Ruhiy tarbiya” asarida keltirilgan ma’naviy-axloqiy merosining ta’lim-tarbiya bilan bog‘liqligi // Tamaddun Nuri jurnali. – 2026. – Jild 7, №82. – B. 112–114.

5.Azizova F. SHAYX MUHAMMAD SODIQ MUHAMMAD YUSUFNING PEDAGOGIK QARASHLARIDAN TA‘LIM-TARBIYA JARAYONIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI. ―PEDAGOGIK MAHORAT‖ ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2026, № 8.

6.Azizova F. SHAYX MUHAMMAD SODIQ MUHAMMAD YUSUFNING PEDAGOGIK QARASHLARIDAN TA‘LIM-TARBIYA JARAYONIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI. —MAKON VA ZAMON ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-sotsiologik, ma’naviy-ma’rifiy jurnal 2026, № 5.